

## **TILSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIK HAMKORLIGINING NAMOYON BO'LISH OMILLARI**

**Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,**  
*Namangan davlat universiteti dotsenti*  
[babaxanovad@gmail.com](mailto:babaxanovad@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslik va madaniyatshunoslik hamkorligining namoyon bo'lish omillari, shuningdek, lingvokulturologiyaning tadqiq obyekti ekanligiga doir ma'lumotlar berilgan. O'zbek xalq maqollari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, madaniyat, til, paremiologiya parema, maqol.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о факторах проявления сотрудничества между лингвистикой и культурологией, а также об объекте исследования лингвокультурологии. Проведен анализ узбекских народных пословиц.

**Ключевые слова:** языкознание, культура, язык, паремиология, пословица.

**Annotation:** This article provides information on the factors of manifestation of cooperation between linguistics and cultural studies, as well as on the object of study of linguoculturology. Uzbek folk proverbs are analyzed.

**Key words:** linguistics, culture, language, paremiology, proverb.

**Kirish.** Antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, "lingvokulturologiya" termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyuan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.[1.40]

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvomadaniyatshunoslikda madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi.[2.10] Bu fanning tadqiqot predmetlaridan biri bo'lmish paremalar tilning boyligi hisoblanadi. Biror xalqning tarixi, madaniyati,

turmushi haqida o‘zida ma’lumotlarni aks ettirgan maqollar lingvomadaniyatshunoslikning tadqiq doirasiga kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:** Mavzu yuzasidan U.Qo‘ziyevning “Lingvomadaniyatshunoslik” uslubiy qo‘llanmasi, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab...”, D.Xudayberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasi va bir qancha dissertatsiya ishlari ahamiyatli sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida paremalarning lingvokulturologik tadqiqi bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar yaratilgan, maqolalar yozilgan. Jumladan, S.Muhammedova, U.Kabulova, D.Otavaliyeva va boshqalarning ilmiy maqolalarida paremiyalar tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** mazkur maqolada qiyosiy tahlil, stilistik tahlil va tasviriy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar:** Paremiya-yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal degan ma’nolarni ifodalaydi. Ular ming yillar ichida yig‘ilib, shakllangan, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida tarqalib, puxtalanib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. Mashhur tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat shunday deydi: “Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi maqolsiz til ham yo‘q”. Professor U.K.Bakirov “Milliy g‘oya targ‘ibotida o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish” risolasida maqolga quyidagicha ta’rif beradi: “Har qanday tilda maqollar insoniyat jamiyatining barcha sohaslarini qamrab oladi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy faoliyatining biron bir sohasida maqollarning aks etmaganini kuzatmaymiz”. [5.202]

Frazeologizmlarning birligi bo‘lmish paremalar millatning dunyoqarashi, turmush tarzi haqida juda muhim ma’lumotlar beradi. Sababi paremalarning aksariyati umummilliylik xususiyatiga ega. Ularda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayoti singdirilgan bo‘ladi. Odatda, maqol va matallar folklorda janr sifatida o‘rganiladi. Tilshunoslikning zamonaviy sohasi lingvokulturologiyaning birliklaridan biri tilning paremiologik fondi hisoblanadi va bu fond “madaniyat tashuvchisi” ekanligi tufayli tadqiqot obyektiga aylanadi. Darhaqiqat, mazkur fanning tadqiq doirasiga kirish uchun maqol biror xalqning tarixi, madaniyati, ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Lingvokulturologiya, eng avvalo, maqol va matallarning mazmun tomoniga e’tibor qaratadi va bu borada boshqa gumanitar fanlar ma’lumotlaridan foydalanadi. V. P. Anikin yozgan: “Kontent tomoni turli profillar mutaxassislarida qiziqish uyg‘otadi. Tarixchilar maqollarda xalq qadimiy urf-odatlarini va qadimiy voqealar aks-sadolarini topadi; advokatlar hikmatlar oddiy qonun normalarining aksini

ko‘radi; etnograf hikmatlar tufayli allaqachon g‘oyib bo‘lgan urf-odat va tartib-qoidalar tabiati haqida fikr oladi; filologlar hikmatlar orqali xalq fikrlash xususiyatlari va tuzilishini tushunishga harakat qiladi; tilshunoslar maqollarni inson nutqining tabiati va qonuniyatlarini o‘rganish uchun eng qimmatli material deb biladilar”.

Til madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida o‘ziga xos yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya –“til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar –til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy sohadir. Xalq maqol va matallari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o‘zida mukammal tarzda mujassamlashtirgan o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lgan ifoda va iboralardan iboratdir. O‘zbek xalq maqollari ko‘pincha maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi va otalar so‘zi atamalari bilan el orasida mashhur. Ko‘pincha ilmiy taomilda maqol atamasi iste‘moldadir.

Mashhur tilshunos Sapir shuni ta‘kidlab aytadiki, tildagi so‘z boyligi insoniyatning jismoniy va ijtimoiy atmosferasi orqali vujudga kelgan. Va bu nazariya asosida tilni madaniyatning bir qismi sifatida keltirishimiz mumkin. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ma‘lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an‘ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko‘rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o‘tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o‘rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o‘tadi. V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog‘liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o‘zida ifodalay ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo‘lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o‘zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi, ya‘ni lingvokulturologiya asoslay oladi. Demak, xalq madaniyatini ko‘rsatishda maqollar

eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko‘plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ilmiy tahlilga tortilmoqda. Xalqning tilida mavjud bo‘lgan har bir so‘z tilda ifodalanar ekan, ma’lum xalqning maqollari o‘sha xalq tilida keltirilgan so‘zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o‘ziga xos xususiyatlari bilan, yasaliş usuli bilangina ifodalanadi. [3:127]

Tilshunoslar frazemalar va turg‘un bog‘lanmalar (paremalar) munosabati masalasida turlicha fikrlar bildirishadi. Jumladan, V.V.Vinogradov maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga kiritadi[5:83]. A.V.Kunin ham paremalarni frazeologizmlarning bir qismi deb ataydi va frazeologik birliklarning barqarorligini turli ko‘rinishlarga xosligida deb belgilaydi [10:381]. Rus terminologiyasining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi, mashhur folklorist olim G.L.Permyakovning qarashlari bu borada, aniq va qiziqarli ekanliginiko‘rsatadi [11:26]. B.Jo‘rayeva doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek xalq maqollarini ekstralingvistik birliklar yordamida shakllangan 8 ta guruhga ajratgan [8:53]. Paremiologiyaning fan sifatida shakllanishi o‘tgan asrning boshiga to‘g‘ri keladi. Paremiyalarning lingvokulturologik tahlili F.F.Farxutdinova[12:2]va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Parema atamasi ostida tadqiqotchilar xalqning kelib chiqishi bilan bog‘liq holatda, birinchi navbatda, maqollarni tushunadilar. Ammo atamaning kengroq qamrovi ham mavjud. Masalan, G.S.Vorkachev [6:15-31] paremalarga nafaqat maqollar va turg‘un birikmalarini, balki topishmoqlar, matallar va aforizmlarni ham kiritadi.O‘zbek tilshunosligida ham paremalarni tadqiq qilish borasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, B.Jo‘rayeva tomonidan “O‘zbek xalq paremalarining sinonimik lug‘ati” tuzildi. Muallif o‘zbek xalq paremalarini to‘plashga bag‘ishlangan dastlabki ish ekanligini alohida ta’kidlaydi. Kirish qismda maqolning matal hamda maqol-matal tipidagi paremalardan farqi tushuntirilib, maqol, matal va maqol-matal tipidagi paremalar bilan bog‘liq sinonimiya hodisasi haqida ham fikr yuritiladi. Lug‘at qismda esa, ikki parema qatnashadigan sinonimik uyadan qirq to‘rt parema qatnashadigan sinonimik uyagacha qamrab olingan. Z.Xolmanova, G.Valiyeva, D.Muhammadiyevalar hammuallifligida 2022-yil “O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi” monografiyasi nashrdan chiqdi. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi paremalarning semantik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berish bilan birgalikda, o‘zbek xalq maqollari, matallari, o‘rni bilan, turkiy tillar hamda boshqa genetic oilaga mansub tillardagi paremiyalar tahlil qilingan.

Maqollarning lingvokulturologik xususiyatida millatlarning o‘ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Maqollarning to‘plami –bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotida

orttirgan haqiqati”, – degan edi taniqli tilshunos Dal. Maqollar til egasi bo‘lmish xalqning ma’naviy va moddiy madaniyati ko‘zgusi ekanligini quyidagi maqollar orqali ko‘rib chiqamiz:

“Har supradan - bir kulcha” (varianti: “Har chinordan – bir yaproq”. Bir oiladan bir qiz olgan bo‘lsalar-u, u yaxshi, ko‘ngildagidek chiqmagan bo‘lsa, “kelindan kuygan bo‘lsalar, boz ustiga qudalari ikkinchi qizini ham shu oilaga bermoqchi bo‘layotganlarini bevosita yoki bilvosita ma’lum qilsalar, yigit tarafdagi qudalar: “Yo‘q endi, bir oiladan – bir qiz-da, boshqasini ham ko‘raylik”, degan ma’noda rad etish ishoratini bildirib, yuqoridagi maqolni aytadilar.[13.514] Unda ishlatilgan supra, kulcha, chinor kabi so‘zlar o‘zbek tilida uchraydigan so‘zlardir.

O‘zbek xalqi maqollarida nonni ulug‘lash, isrof qilmaslik to‘g‘risida maqollar ko‘plab uchraydi. Xalqning udum-an’anasiga ko‘ra, non dasturxonga teskari holatda qo‘yilmaydi, mabodo yerga tushib ketsa, 3 marta o‘pib, so‘ng peshonaga suriladi, dasturxonda non ushog‘i ko‘rilsa, yeb qo‘yiladi. Bular shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz azaldan nonni hurmat qiladi, uni baraka ne’mati sifatida aziz va muqaddas deb bilishadi. Shuning uchun nonni e‘zozlashga, uni isrof qilmaslikka undaydilar. Misol uchun:

Non bolasi-non ushoq;

Non ham non, nonning ushog‘i ham non;

Nonga e’tibor-elga e’tibor;

Osh-avliyo, non-payg‘ambar;

Non iymondan aziz;

Non hidida hayot bor, har mag‘zida mamot bor;

Non mo‘lligi-el to‘qligi;

Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas;

Non bo‘lsa bas, o‘zgasi havas;

Nonni uvatma, qadrini otma.

**Xulosa.** Demak, ma’lum bir tilning madaniyati haqida ma’lumot olish uchun tilda qo‘llanuvchi paremiyalar asosiy va muhim baza vazifasini o‘taydi. Ular turli milliy hamda madaniy omillar, xalq tarixi, turmush tarzi mahsuli sifatida vujudga kelganligini hisobga olsak, til va madaniyat munosabatida shakllangan lingvomadaniyatshunoslik sohasining tadqiqot obyektiga aylanadi. Shuningdek, bir xil mavzudagi maqollarda ham obrazlarning takrorlanmasligi aks etadi va bu ulardagi milliy bo‘yoqdorlikni o‘zida jamlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qo‘ziyev U. Lingvomadaniyatshunoslik (uslubiy qo‘llanma). –Toshkent, 2021. –B.6
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab... -Toshkent, O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. –B.10.

3. Bozorova Gulmira. Nemis va o‘zbek tillaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik tahliliga doir, Pedagog respublika ilmiy jurnali, 7-tom, 9-son, 2024. -B.127.
4. Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира “Илм сарчашмалари” илмий – методик журнал, № 10. Урганч – 2020. – 202 б.
5. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII-XIX веков. –М., 1982. –С.83-84.
6. Воркачев С.Г. Quisque suum: идея справедливости в научном дискурсе II Синтез: Философия. Право. Экономика. –2009. –N1(19), 2(20). –С.15-31.
7. Даль В.И. Пословицы русского народа. –Москва, 1957. –С.17.
8. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақолларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. –Самарқанд, 2019. –Б.53-93.
9. Кокаре Э.Я. Интернациональное и национальное в латышских пословицах и поговорках. – Рига, 1978. –С.18.
10. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. –М.: «Высшая школа». Дубна: Феникс, 1996. –С.381.
11. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. –М.: Наука, 1988. –С.26.
12. Фархутдинова Ф.Ф. Концептуальный анализ паремических единиц // Материалы Международной конференции «Фразеологическая картина мира» / Сост. В.Т. Бондаренко, Г.В. Токарев: В 2-х ч. Ч 1. –Тула: Изд-во ТГПУ им Л.Н. Толстого, 2002.
13. Шомаксудов Ш. , Ш.Шорахмедов. Ҳикматнома. –Т.: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990.- В.514.